Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

# SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLARNI HIMOYA QILISH VA LOKALIZATSIYA QILISH TALABINING HUQUQIY MUAMMOLARI

**Abdullayev Shahzod G'ofur o'gli**
Toshkent davlat
yuridik universiteti, magistratura
e-mail: abdullayevzdf@gmail.com
+99894-037-74-17
https://doi.org/10.5281/zenodo.24110804

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli muhitda shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish va ularni lokalizatsiya qilishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunning amaldagi tahriri hamda Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-iyuldagi 415-son qarori o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida biometrik, genetik va telekommunikatsiya foydalanuvchilariga oid ma’lumotlarni mamlakat hududida saqlash talabi saqlanib qolgani, boshqa ma’lumotlarni chet elda saqlash va ularga ishlov berish esa qonunda belgilangan muqobil kafolatlardan biri mavjud bo‘lganda mumkinligi aniqlanadi. Lokalizatsiya yurisdiksiyaviy nazoratni kuchaytiruvchi vosita bo‘lsa-da, axborot xavfsizligini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Shu sababli texnik himoya, mustaqil nazorat, samarali huquqiy himoya va mutanosib davlat aralashuvi bilan uyg‘un tizim zarurligi asoslanadi.
**Kalit so‘zlar:** shaxsga doir ma’lumotlar, ma’lumotlarni himoya qilish, lokalizatsiya, transchegaraviy uzatish, biometrik ma’lumotlar, genetik ma’lumotlar, raqamli huquq.

Raqamli xizmatlar, bulutli infratuzilma va sun’iy intellektdan foydalanish kengaygani sari jismoniy shaxsga taalluqli axborotning hajmi, undan foydalanish imkoniyatlari va xavfsizlikka doir xatarlar ham ortmoqda. Shaxsga doir ma’lumotlar xizmat ko‘rsatish, identifikatsiya, to‘lovlarni amalga oshirish va algoritmik tahlil jarayonlarida qayta ishlanadi. Ma’lumotlarni turli bazalar bilan birlashtirish shaxs haqida batafsil tasavvur hosil qilishi mumkin; shu bois alohida olinganda zararsiz ko‘ringan axborot ham shaxsiy hayot va erkinlikka ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli bor.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasi har kimning shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsga doir ma’lumotlari himoya qilinishiga oid huquqlarini kafolatlaydi. “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, ularga ishlov berish, ulardan foydalanish va ularni himoya qilish tartibini belgilaydi. 2026-yilda Qonunning $27^1$-moddasi yangilanib, ma’lumotlarni O‘zbekiston hududida saqlash hamda ularni chet elda saqlash va qayta ishlash shartlari qayta belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 415-son qarori esa bir xil himoya darajasini ta’minlaydigan chet davlatlar ro‘yxatini tasdiqladi.

Tadqiqotning maqsadi — amaldagi qonunchilik asosida lokalizatsiya talabining mazmuni va shaxs huquqlarini ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash, uning transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvi hamda texnologik rivojlanishga ta’sirini baholash va qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash. Tadqiqot doirasida quyidagi savollar ko‘rib chiqiladi: amaldagi huquqiy rejim qaysi ma’lumotlarga

majburiy lokalizatsiya talabini qo‘yadi; qolgan ma’lumotlarni chet elda saqlash va qayta ishlash qanday shartlarga bog‘liq; lokalizatsiya shaxs huquqlarini qay darajada himoya qiladi?

Tadqiqotning normativ asosini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, uning 2026-yil 26-martdagi O‘RQ-1125-son Qonun bilan kiritilgan tahriri hamda Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-iyuldagi 415-son qarori tashkil etdi. Xalqaro va qiyosiy materiallar sifatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudining 1983-yil 15-dekabrdagi qarori, Yevropa inson huquqlari sudining “S. va Marper Birlashgan Qirollikka qarshi” ishi hamda ma’lumotlar buzilishi bo‘yicha 2026-yilgi DLA Piper statistik hisobotidan foydalanildi.

Tadqiqotda formal-yuridik usul orqali normativ qoidalar mazmuni va o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi; qiyosiy-huquqiy usul bilan O‘zbekistonning amaldagi rejimi va ma’lumotlarni himoya qilishga doir xalqaro sud yondashuvlari solishtirildi; tizimli tahlil usuli orqali lokalizatsiya, transchegaraviy uzatish, xavfsizlik va shaxsning huquqiy himoyasi o‘rtasidagi munosabat baholandi. Statistik ma’lumotlar ikkilamchi manba sifatida muammoning amaliy ko‘lamini ko‘rsatish uchun qo‘llandi; ular O‘zbekiston bo‘yicha holatni ifodalamaydi.

Qonunning $27^{1}$-moddasi uch toifadagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida saqlashni majburiy belgilaydi: jismoniy shaxslarning biometrik ma’lumotlari, genetik ma’lumotlari hamda O‘zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan telekommunikatsiya operatorlari xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslarning ma’lumotlari. Norma mazmuniga ko‘ra, majburiy talab aynan ushbu ma’lumotlarni hududda saqlashga taalluqli. Shuning uchun uni barcha holatlarda ma’lumotlarni faqat O‘zbekistonda qayta ishlash yoki chet elga uzatishni mutlaq taqiqlash deb talqin qilish uchun mazkur moddaning o‘zi yetarli asos bermaydi.

Qolgan shaxsga doir ma’lumotlarni O‘zbekiston hududidan tashqarida saqlash va ularga ishlov berish Qonunda nazarda tutilgan shartlardan kamida bittasi bajarilganda mumkin: qabul qiluvchi davlat bir xil himoya darajasini ta’minlovchi davlat sifatida tan olingan bo‘lishi; operator tasdiqlangan talablarga javob beruvchi standart shartnomaviy shartlar yoki majburiy korporativ qoidalarni qabul qilishi va ularga rioya etishi; yoxud operator vakolatli organ ro‘yxatidagi xalqaro standartlarga amal qilishi lozim. Demak, amaldagi model umumiy va to‘liq lokalizatsiyadan shartlarga asoslangan transchegaraviy uzatish modeliga o‘tgan.

Vazirlar Mahkamasining 415-son qarori 49 ta chet davlat va hududni bir xil himoyani ta’minlovchi ro‘yxatga kiritdi. Ro‘yxatga uzatish xalqaro kelishuvlar asosida tashkil etilgan axborot tizimlari orqali, ma’lumotlar tarqalib ketishining oldini olish choralari ko‘rilgan holda amalga oshirilishi belgilangan. Qaror bo‘yicha bunday uzatish uchun qo‘shimcha ruxsatnoma olish yoki vakolatli organni oldindan xabardor qilish talab etilmaydi. AQSH ro‘yxatga cheklov bilan kiritilgan: imtiyoz Yevropa Ittifoqi–AQSH Data Privacy Framework doirasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga taalluqli. Qarorda transchegaraviy uzatishdagi buzilish aniqlansa, operator vakolatli organga 24 soat ichida xabar berishi va 72 soat ichida sabablar hamda bartaraf etish choralari haqida batafsil axborot taqdim etishi ham nazarda tutilgan.

Yevropa nazorat organlariga xabar berilgan shaxsiy ma’lumotlar buzilishlari soni 2025-yil 28-yanvardan 2026-yil 27-yanvargacha kuniga o‘rtacha 443 tani tashkil etgan; DLA Piper hisobotida oldingi yildagi o‘rtacha ko‘rsatkich 363 ta deb berilgan. Bu ko‘rsatkichlar kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni

muhofaza qilish choralariga ehtiyoj yuqori ekanini ko‘rsatadi, biroq lokalizatsiyaning o‘zi buzilishlarning oldini olishi haqida xulosa bermaydi.

Lokalizatsiya ma’lumotlar va ularni boshqaruvchi infratuzilma ustidan milliy yurisdiksiyaning amalda qo‘llanishini osonlashtirishi mumkin. Ma’lumotlar mamlakat hududida saqlanganda vakolatli organlarning tekshiruv o‘tkazishi, sud qarorlarini ijro etishi va operatorlarga talab qo‘yishi soddalashadi. Biometrik va genetik ma’lumotlarning o‘ta sezgirligi hamda telekommunikatsiya ma’lumotlarining shaxs hayoti haqida keng tasavvur berishi sababli, ushbu toifalarga alohida talab qo‘yilishi qonunchilikning xavfga asoslangan yondashuvi sifatida baholanishi mumkin.

Biroq serverning geografik joylashuvi axborot xavfsizligining yagona mezoni emas. Zaif kirish nazorati, shifrlashning yetishmasligi, xodimlar xatosi yoki tizimdagi zaifliklar mahalliy serverda ham ma’lumotlar sizib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli lokalizatsiya texnik va tashkiliy himoya choralarini, xavfsizlik hodisalari haqida tezkor xabar berishni, mustaqil auditni va huquqbuzarlik uchun samarali javobgarlikni to‘ldirishi lozim. 415-son qarordagi 24 va 72 soatlik xabar berish muddatlari ushbu javob choralarining bir qismini belgilaydi.

Qiyosiy sud amaliyoti shaxs haqidagi ma’lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishda qonuniylik, zarurat hamda mutanosiblik mezonlarini qo‘llash lozimligini ko‘rsatadi. Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudining aholini ro‘yxatga olishga doir qarorida avtomatlashtirilgan ishlov sharoitida ma’lumotlarni birlashtirish shaxs haqida batafsil profil yaratishi mumkinligi e’tirof etilgan. “S. va Marper Birlashgan Qirollikka qarshi” ishida esa Yevropa inson huquqlari sudi aybi isbotlanmagan shaxslarning biometrik va genetik ma’lumotlarini muddatsiz saqlashni shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog‘liq muammo deb baholagan. Bu yondashuvlar ma’lumotlarning mamlakat ichida saqlanishi davlat organlarining ularga kirishi ham qonun bilan aniq cheklanishi, maqsadga muvofiq va mutanosib bo‘lishi zarurligini anglatadi.

Transchegaraviy uzatish uchun ro‘yxat va muqobil kafolatlarni joriy etish xalqaro raqamli xizmatlardan foydalanish va ma’lumotlar almashinuvini yengillashtirishi mumkin. Shu bilan birga, operatorlar uchun qaysi ma’lumot qaysi istisnoga kirishi, qaysi standartlar qabul qilinishi va vakolatli organning nazorat tartibi aniq bo‘lishi kerak. Qonunda ko‘rsatilgan muqobil shartlarning amaliy qo‘llanishi uchun standart shartnomaviy bandlar, majburiy korporativ qoidalar va tasdiqlangan xalqaro standartlarning ochiq hamda tushunarli mezonlari muhimdir.

Shaxs manfaatlarini samarali himoya qilish uchun ma’lumot subyektining ma’lumotlarga kirish, ularni tuzatish va qonunga xilof ravishda qayta ishlangan ma’lumotlarni yo‘q qilishni talab qilish huquqlarini raqamli muhitda amalga oshirish mexanizmlari ham izchil ishlashi lozim. Algoritmik profil yaratish yoki avtomatlashtirilgan qarorlar shaxs huquqlariga jiddiy ta’sir qiladigan holatlarda qarorni tushuntirish, inson tomonidan qayta ko‘rib chiqishni talab qilish va shikoyat qilish imkoniyatlarini belgilash qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishidir.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qonunchiligi shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilishda umumiy lokalizatsiya modelidan muayyan toifalarni hududda saqlash va qolgan ma’lumotlar uchun shartli transchegaraviy uzatish modeliga o‘tgan. Biometrik, genetik va telekommunikatsiya foydalanuvchilariga oid ma’lumotlar O‘zbekiston hududida saqlanishi shart; qolgan ma’lumotlarni chet elda saqlash va ularga ishlov berish qonunda belgilangan himoya shartlaridan biri bajarilishiga bog‘liq.

415-son qaror 49 davlat va hudud bilan ma’lumotlar uzatish tartibini belgilaydi, AQSH bo‘yicha esa alohida doiraviy dasturga oid cheklov mavjud. Qaror ruxsatnoma va oldindan xabardor qilish talabini

bekor qilgan sharoitda, xavfsizlik choralariga rioya etish hamda buzilish haqida belgilangan muddatlarda xabar berish operator mas'uliyatining muhim qismiga aylanadi.

Lokalizatsiya yurisdiksiyaviy nazorat va nozik toifadagi ma'lumotlarni himoya qilishga xizmat qiluvchi vositadir, lekin axborot xavfsizligini mustaqil ravishda kafolatlamaydi. Uning samarasi texnik va tashkiliy xavfsizlik, ma'lumotlarni saqlash muddatlarini cheklash, davlat organlarining kirishini qonuniy va mutanosib nazorat qilish, subyekt huquqlarini amalda ta'minlash hamda aniq transchegaraviy uzatish standartlari bilan belgilanadi. Qonunchilikni takomillashtirishda aynan shu kafolatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel kuni referendumda qabul qilingan. 31-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni; O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 26-martdagi O‘RQ-1125-son Qonuni bilan kiritilgan o‘zgartirishlar, 27¹-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-iyuldagi 415-son “Shaxsga doir ma’lumotlar bir xil himoya qilinishini ta’minlovchi chet davlatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-rezolyutsiyasi. 12-modda.
5. Bundesverfassungsgericht. Judgment of 15 December 1983, 1 BvR 209/83 (Census Act case / Volkszählungsurteil).
6. European Court of Human Rights, Grand Chamber. S. and Marper v. the United Kingdom, Applications nos. 30562/04 and 30566/04, Judgment of 4 December 2008.
7. DLA Piper. GDPR Fines and Data Breach Survey 2026. January 2026.
8. Raimov E., Abdumo‘minova S. O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunining huquqiy tahlili // Yurisprudensiya. 2026. 6-jild, 4-son. B. 57–62.